

30. Ustunli diagramma


Yondosh mavzu:
Xizmatlar

Grafik ma'lumotlar,
ifodalar



1. Aziza ayni bir turdagi shokolad narxini turli savdo nuqtalarida solishtirib ko'rdi. Qulaylik uchun u jadval va diagramma tuzdi.

Joy	Supermarket	Bufet	Bozor	Qahvaxona
Narxi, so'm	9 000	12 000	10 000	15 000



- Eng arzon shokolad qayerda?
- Qaysi usul ko'rgazmaliroq: jadvalmi yoki diagrammami?
- Shu diagramma bo'yicha yana bir necha savol tuzing.




“Diagramma” so'zi yunonchadan olingan bo'lib, “chizma” degan ma'noni anglatadi.
Ustunli diagramma – ma'lumotlarning bir nechta ustunlar ko'rinishidagi grafik tasviri.


30. Ustunli diagramma



2. Mahallada kasanachilik xizmati ochildi. Chiziqli diagrammani ko'rib chiqing. Har bir xizmatdan qancha odam foydalanganini toping.



3. O'qituvchi yozda uning har bir o'quvchisi kutubxonadan qancha kitob olganini diagrammada tasvirladi. Diagrammani kuzating. Savollarga javob bering.



Savollarga javob bering.

- Kim eng ko'p kitob o'qigan?
- Kimlar ko'proq kitob o'qiydi: qizlarmi yoki o'g'il bolalarmi va qancha ko'p?
- Har bir bola o'rtacha nechta kitob o'qigan?



4. Mehmonxona va yo'lakni ta'mirlash uchun 27 o'ram gulqog'oz sotib olindi. Mehmonxonaga yo'lakka qaraganda 2 baravar ko'p gulqog'oz talab etiladi. Mehmonxona uchun necha o'ram gulqog'oz kerak bo'ladi?

30. Ustunli diagramma



5. Ifodalarni yozing va ularni hisoblang.

- a) 27 035 va 51 929 sonlari yig'indisidan 11 925 ni ayiring.
- b) 76 708 va 28 395 sonlari yig'indisiga 72 011 ni qo'shing.
- d) 55 200 sonini 89 va 71 sonlari yig'indisiga bo'ling.
- e) 45 632 sonidan 63 va 17 sonlari ko'paytmasini ayiring.



6. Taqqoslang.

- a) $a \cdot 790$ ☐ $a : 790$
- b) $(800 - 40) \cdot y$ ☐ $760 \cdot y$
- d) $(x + 100) \cdot 2$ ☐ $(x + 200) \cdot 2$
- e) $t \cdot 0$ ☐ $t \cdot 1$
- f) $370 + a$ ☐ $370 - a$
- g) $9\,000 : m$ ☐ $9\,000 \cdot m$



7. Tenglamalarni yechig.

- a) $(920 - x) : 20 + 75 = 113$
- b) $(320 : y + 16) \cdot 40 = 960$



8. Jasurda 3 ta olma bor. U olmalarni 3 ta xaltachaga shunday joylashtirishi kerakki, bunda har bir xaltachada turli miqdorda olmalar bo'lishi kerak. Unga bu ishni amalga oshirishda yordam bering.



9. Hisoblang.

- $8\,710 : 13 \cdot (172 + 193)$
- $98 \cdot (224 + 395) : 49$
- $(420 - 208) \cdot 90 : 18$
- $(370 - 127) \cdot 18 - 443$



10. Ona tili fanidan olimpiadada Jasur 9 ball, Madina Jasurdan 1 ball kam, Akmal esa Jasurdan 2 ball ko'p oldi. Aziza Jasur, Akmal va Madina birgalikda olgan ballaridan 3 baravar kam ball oldi.

- a) Ularning har biri necha ball oldi?
- b) Olimpiada ishtirokchilarining natijalarini aks ettiruvchi ustunli diagramma tuzing.